

XALQ OG'ZAKI IJODIDA "SHAXS" SEMASINING OYDINLASHUVI

Raximjonova Gulnoza*FarDU o'qituvchisi***Ismoiljonova Madinabonu***FarDU talabasi*

Annotatsiya: *Badiiy asar tili, shu jumladan, leksikasini o'rganish adabiyotshunos hamda tilshunoslar oldida turgan muhim hamda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Keyingi yillarda bu yo'nalishda tilshunos olimlarimiz amalga oshirgan tadqiqotlar ancha ko'paydi.*

Annotation: *Studying the language of a work of art, including its lexicon, is considered one of the most important and urgent issues facing literary scholars and linguists. In the following years, the researches carried out by our linguists in this direction have increased significantly.*

Аннотация: *Изучение языка художественного произведения, в том числе его лексики, считается одной из важнейших и актуальных проблем, стоящих перед литературоведами и лингвистами. В последующие годы исследования, проводимые нашими лингвистами в этом направлении, значительно расширились.*

Kalit so'zlar: *obraz, lingvopoetik,leksika,lisoniy birliklar, eskirgan qatlam,semantik,sheva, doston.*

Ключевые слова: *образ, лингвопоэтика, лексика, языковые единицы, устаревший слой, семантика, диалект, эпос.*

Keywords: *image, linguopoetics, lexicon, linguistic units, obsolete layer, semantics, dialect, epic.*

Badiiy matndagi obrazlar silsilasini lingvistik omillar asosidagi talqini, tilshunosligimizning yangi va ulkan imkoniyatlaridan darak beradi.

Dostonlar ham barcha janrlar qatori xalq og'zaki ijodida muhim o'rin egallab, bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda keng ko'lamda foydalanib kelingan. Dostonlarda kishi kamolotining barcha qirralarini tarbiyalashni, ya'ni vatanparvarlik, do'stlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va fanga qiziqish, jismoniy kamolot, dovyuraklik, jasoratlilik, kasb-hunarli bo'lish, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, to'g'rilikning egrilik ustidan tantanasi, yuksak odob va axloq, manmanlik va maqtanchoqlining zararli oqibatlari, ichikilik va qimorbozlikning razil oqibatlari, o'zaro yordam, tabiatga qiziqish va uni muhofaza qilish, boylikka xirs qo'ymaslik va uning yomon oqibatlari kabilarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hasoblangan dostonlarda umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan. Ularda xalqning turmush tarzi, axloq odobi, urf-odatlar, marsoimlari, an'analari, insoniy va ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonavor

kurashlari, vatanparvarligi, sevgi-muhabbatga sadoqati, kelajakka ishonchi yaqqol ifodalanadi. Buni «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Rustamxon», «Murodxon», «Oysuluv», «Shirin bilan Shakar», «Kuntug‘mish» kabi dostonlarda ko‘rish mumkin. Chunki bu dostonlar, avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda ota-ona, o‘zgalarga hurmat tuyg‘usi, do‘stlik va hamkorlik, xayr-u saxovat va mehmonnavozlik, sevgi va sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlari kabi insonparvarlik sifatleri ulug‘langan.

Badiiy asar tili, shu jumladan, leksikasini o‘rganish adabiyotshunos hamda tilshunoslar oldida turgan muhim hamda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Keyingi yillarda bu yo‘nalishda tilshunos olimlarimiz amalga oshirgan tadqiqotlar ancha ko‘paydi. E‘tiborga molik ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bir qator monografik ishlar bajarildi. Darslik va qo‘llanmalar yaratildi. Nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilindi. Jumladan, X.Doniyorov va B.Yo‘ldoshevlar tomonidan yaratilgan “Adabiy til va badiiy stil” nomli kitobda badiiy asar tilini tadqiq etishning aniq yo‘llari va usullari belgilab berildi²². N.Mahmudov²³, B.Yo‘ldoshev²⁴, S.Karimov²⁵, B.Umurqulov²⁶, M.Yo‘ldoshev²⁷ kabi ko‘plab tilshunoslar badiiy asar tilini tadqiq qilishda samarali hissa qo‘shdilar.

Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek tilshunosligida xalq poetik ijodi namunalarining muayyan janrlariga tegishli namunalari, xususan, xalq dostonlari tiliga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari XX asrning 40-yillaridan boshlangan deya qayd etiladi. Taniqli folklorshunos olim, professor Hodi Zarifovning “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari bu boradagi tadqiqotlarning debochasi sifatida e‘tirof etiladi. Olimning V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yaratgan fundamental tadqiqotida xalq dostonlari tili bo‘yicha ham qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lib, bu mulohazalar hozirgacha ham o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmagan²⁸.

Fozil shoir dostonlari tili bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan G.Jumana-zarova ta’kidlaganidek, H.Zarifov va V.Jirmenskiylar hamkorligida yaratilgan ilmiy tadqiqot “keyingi tadqiqotlar uchun metodologik zamin hozirlab berdi”²⁹. Taniqli folklorshunoslarning ushbu ilmiy ishidan so‘ng filologiya ilmida folklorshunoslik masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yuzaga keldi.

Tilshunosligimizda Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostoni badiiy tiliga, R.Rasulovning “Alpomish” dostoni tili sintaksisiga, S.Tursunovning “Alpomish” dostoni leksikasiga, Z.Xolmonovning Po‘lkan shoir tomonidan kuylangan “Shayboniyxon” dostoni leksikasiga, A.Rahimovning o‘zbek xalq dostonlari

²² Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –Toshkent: Fan, 1980. – 159 b.

²³ Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1981.11-b.

²⁴ Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982. – 81 b.

²⁵ Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. –Samarqand.1992. 26-b.

²⁶ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. – 111 b.

²⁷ Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati. (“Kecha va kunduz” romani asosida): Filol. fanl. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. 25 b.

²⁸ Жирминский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. –М.:ГИХЛ, 1947. -520 с.

²⁹ Xoliqov Azamat.Qodir baxshi dostonlari tilining leksik- stilistik xususiyatlari. Diss.Qarshi.2014.B -14.

leksikasining qiyosiy-tarixiy tahliliga, J.Xolmurotovaning Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlariga, A.Xoliqovning “Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlariga, G.Jumanazarovanning “Shirin bilan Shakar” dostonining lug’aviy va lingvopoetik xususiyatlariga, Sh.Mahmadiyevning xalq dostonlari tilida qo’llaniladigan stilistik formulalarga bag’ishlangan nomzodlik ishlari shular jumlasidandir.

Bizga ma’lumki, xalq dostonlarining ijodkori xalqning o’zidir. Shuning uchun ham xalq dostonlari tili leksikasiga e’tibor qaratish ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, dostonlar xalq baxshilari tomonidan kuylanadi, Baxshi esa doston tiliga sayqal berishi mumkin. Shunday ekan, xalq dostonlari tilining sheva va adabiy tilga munosabati masalalari va lisoniy birliklarning rang- barangligi o’zbek tilshunosligi fani oldida turgan muhim vazifalardan biri. Shuning uchun ham tilshunosligimizda xalq dostonlari leksikasini o’rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Xalq dostonlaridabir qator fe’llar o’xshatish ko’rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi. Ko’rinadiki, fe’l so’z turkumi badiiy matnda, shu jumladan, xalq og’zaki ijodi namunalarida tasviriylikni ifodalashda keng qo’llaniluvchi so’z turkumi sanaladi.

Masalan, Hasan mard buni ko’rib, ko’zlari yoshga to’lib, jazavalari qo’zg’alib, polvonlik tomirlari uyg’onb, o’zini tuzab, tezlana berdi

Bundan tashqari qahramon yoki narsa –predmetni tasvirlashda metaforalarning o’rni beqiyos. O’xshatishlar xalq doston matnida badiiy bo’yoqdorlik, obrazlilik, epik tasvirda aniqlik tug’dirish uchun xizmat qiladi. Bu unsurda, asosan, otlar, otlashgan so’zlar, so’z birikmalari bilan ifodalanadi.

Masalan, “Ravshan” dostonidan olinga parchaga e’tiborimizni qaratamiz.

Qoraxon qarasa, bir qiz turibdi qayqayib; qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo’lib, shirin qilib kulib, taroqqos bo’ylab, suqsurday bo’ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi³⁰.

Ushbu Qoraxon podshoning qizi Zulxumorning tasvirida -day affiksi matn tarkibida o’xshatish munosabatini yuzaga chiqarishda eng sermahsul sanaladi.

Masalan, Zulxumorning jamolini, nav daraxt kamolini ko’rib tomosha qiladi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning komoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to’lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehni qo’yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko’zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og’izlari o’ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, talon- qarchg’ay- uchadigan qushday, muhrlangan qog’ozday yalt-yult o’tiribdi.

Bundan tashqari xalq dostonlari matnida shevaga oid so’zlari ham uchratamiz. “qayqayib” shevada bo’lib adabiy tilda qayqayib so’zini to’g’ri keladi. Belga nisbatan chikka leksemasi ishlatiladi. Asli chikka leksemasi izohli lug’atda oshiqning ichi chuqur tomoni va shu tomoni sirtga qaragan vaziyati yoki pukkaning

³⁰ “Ravshan” dostoni .Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.2011. B-214.

aksi. Pukka esa oshiqning chikkaga qarama qarshi, do'mboq tomoni. Demak, Zulxumor obraziga berilgan tasvirda qizning belining ingichka, nozik va xipchaligiga e'tibor qaratilyapti. Oshiqning chikkasining ingichkaligi inobatga olinib yorning belining nozikligiga o'xshatib uning o'rnida boshqa sinonimini qo'llanilyapti.

Zamongul hovuzning bo'yida enasining ust- boshini yuvib, o'tirib edi kampir qizga qarab ravona bo'ldi yo'lda o'ziga- o'zi aytdi:” Mening Zamongul jonim ham to'ladan kelgan, iylab tashlangan po'ladan kelgan: kachkul bet, burni past qulog'i yuqdan kelgan, qorinli, siyroqli, bo'rbo'yli- ajabtovur qiz”.

“Iylamoq” so'zining ma'nosi ezib yoki mushtlab yumshatmoq, shu yo'l bilan ishlov bermoq kabilarni bildiradi. Oshlangan terini, ko'nni g'ijimlab ezib ishlov bermoq.” po'la” so'zi esa [shikastlangan, ezilgan] Zarb yeb yoki pishib o'tib ketib ichi tushgan, ichi bo'sh. Po'la qovun. Qovunning yomoni- po'la Xeshning yomoni bola,” Folklor”³¹.

Zamongul bu yerda badanining yumshoqligiga va to'laligi aytib o'tilmoqda. Bundan tashqari taqim, bolder kabi sinonim so'zlarning shevadagi variant “bo'r bo'y” so'zi qo'llanilmoqda.

Bu so'zlar o'zbek tilining serqatlam xazinasidan munosib o'rin egallagan eski so'zlardan, shuningdek, zamonaviy tilning funksional normativ leksikasidan eskilik bo'yog'iga egaligi bilan farqlansa, xalq dostonlarida qo'llanilgan eskirgan so'zlar ularning ko'p asrlik ijodiy shakllanish bosqichlarida xalq tilining eng faol meyoriy leksikasi sifatida amalda bo'lganligi bilan ajralib turadi. Shevashunos Ahmad Ishayev eskirgan so'zlar xususida quyidagilarni yozadi: “Tarixiylik nuqtai nazaridan dostonlarda uchraydigan eskirgan so'zlar mazkur manbalar uchun tarixiy yoki arxaik so'zlar emas. Chunki, dostonlar yaratilib, asrlar osha kuylanib kelinganda, bu so'zlar juda mahsuldor bo'lgan va shu sababli ular dostonlarning badiiy to'qimalariga chuqur singib ketadi”

Dostonlarida qo'llangan eskirgan so'zlarning tarixiy qimmatini chuqurroq anglash uchun ularning lug'aviy-mavzuviy guruhlarini aniqlash va shu asosda tahlilni davom ettirish muhim samaralar berishi mumkin. O'zbek adabiy tilidagi, shu jumladan, xalq dostonlari tilidagi eskirgan so'zlarning ko'p qismi o'zining mavzu doirasi jihatidan tarixiy ahamiyatga egadir.

Bunga “Ravshan” dostonidagi parcha yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu dostondagi o'g'il tutingan kampirning tasviri ham baxshi tomonidan mahorat bilan chizilgan. Ravshanbek shunday qarasa, bir kampir, bu kampirlardan boshqa kampir, bilmayman kiribdi necha yoshga kampir. Beli bukrayib qolgan, qulog'i tikrayib qolgan bachchag'arning tishlari omochday, sochlari polochday, manglayidan tarlon ochgan, ikki chekkasining go'shti qochgan, bo'yinlari tirishgan hamma yeri qurishgan, iyaklari burishgan, ko'ringan odam bilan urishgan, agar boshqa odam erinmasa, erinmasdan urishgan kampir. Ko'zlari o'tday, manglayi cho'tday balki bahaybat boytebatday kampir. Chaqadigan ilonday qari ham bo'lsa qulunday, bo'ynin suzib bulunday, suvga

³¹ O'zbek tilining izohli lug'ati, Besh jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.304-b.

kelayotibdi”³². Ushu matnda berilgan tarlon leksemasining ma’no nozikliklariga qaratamiz. Asli tarlon- ola targ’il, chavkar, shu tUSDagi ot ma’nosini beradi. Baxshi bu yerda kampir badaning ko’p umr ko’rganidan rangini ola- targ’il bo’lib buzilganligini aytib o’tyapti . Bu obrazni ta’riflashda yoshining ham nomalimligiga ishora bor ya’ni ancha yoshdan o’tib qolgan qari – qartang kampirga berilgan ta’rif. Uning manglayiga berilgan ta’rifda esa boytebetday degan leksemani ishlatadi. Bu so’zning izohi “katta, bahaybat, ko’ppak it”. Kallasi xuddi gov savatday, Tishi so’yroq qopgir boytevatday. Xalq dostonlaridagi bu so’zlarning o’rniga uning sinonimini qo’llaydigan bo’lsak qahramon obrazini yoritishda uning tasviri to’laqonli ochilmagan bo’lar edi. Bundan tashqari bu so’zlar o’zbek tilining serqatlam xazinasidan munosib o’rin egallagan eski so’zlardan, shuningdek, zamonaviy tilning funksional normativ leksikasidan eskilik bo’yog’iga egaligi bilan farqlansa, xalq dostonlarida qo’llanilgan eskirgan so’zlar ularning ko’p asrlik ijodiy shakllanish bosqichlarida xalq tilining eng faol meyoriy leksikasi sifatida amalda bo’lganligi bilan ajralib turadi.

Boytebet so’zi ko’chma ma’noda sochlari paxmoq, ust- boshi juldur odamga ham nisbatan aytiladi. O’zingga sal qarasangchi boytebet bo’lib ketibsan.

Ravshanxon qarasa, bir ko’sa , juda ko’hna bo’lib ketgan pir ko’sa, uch yuzdan oshgan, to’rt yuzga yonashgan juda qari ko’sa, bachchag’ar yildan adashgan , balki besh yuzga kirgan daqyunus ko’rgan, jami el- xalqqa firib bergan; doim juvonbozlik, bedabozlik bilan umrini o’tkazgan uying kuygur. Chekkasidan tarlon ochgan , iyagining go’shti qochgan, qoshlari o’sgan, ko’zini bosgan; iyagining o’rtasida bitta tuki bor ekan, u ham bir qarich bo’lib o’sgan, bu yolg’iz soqolga necha qimmatbaho yaxshi toshlardan teshib osgan, burnining suvi sho’rg’alab, mingan oti yo’rg’alab, Ravshanbekning oldidan chiqqa keldi. Berilgan ta’rifda keltirilgan ko’saning yoshi noma’lum ekanligini yoki ko’pni ko’rganligini daqyunus so’zidan ham bilsak bo’ladi. Bu so’zning ma’nosiga hamohang bo’lgan sharti ketib, parti qolgan frazeologik sinonimni qo’llasak ham ta’sir kuchi yoqolmaydi. Bu bialn baxsh- shoirlarimiz o’quvchining so’z boyligi ortishi bilan birga shevadagi variantini ham bilib olishiga o’z hissalarini qo’shmoqda.. Shuning uchun o’zbek tili sinonimlarga juda boy tillardan sanaladi. Yozma adabiyotda bo’lgani singari og’zaki adabiyotda ham baxshi-ijodkorlar tilimizdagi bu so’zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan muayyan so’zni topib o’z dostonlarida qo’llaydilar. Bunday qo’llanish orqali epik qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko’rsatib beradilar.

Bundan tashqari, tahlilga jalb etilgan dostonlarda qadimgi turkiy til bilan mushtarak bo’lgan eski so’zlar ichida arab va fors-tojik tilidan o’zlashtirilgan lug’aviy birliklarni ham ko’plab uchratamiz.

Xalq dostonlarida badiiy obrazni shakllantirishda ayrim o’rinlarda gulday o’rniga olmaday so’zi sinonim sifatida qo’lanilgani yoki har ikkalasining ham matn tarkibida

³² “Ravshan” dostoni .Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.T.2011.B-198.

kelishini kuzatish mumkin. Ularda yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir qancha ma'nolar o'z ifodasini topadi:

Olmaday so'ldirma gulday yuzingdi,
Ko'zlaringda selob yoshing tizildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 176-182.
- A. Vosiljonov (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1 (B8), 99-105. doi: 10.5281/zenodo.7336283
2. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 173-175.
3. E. Najmiddinov, A. Rasujonov, & J. Rahimov (2022). FARG'ONA VODIYSI SUV HAVZALARIDAGI BALIQLAR GELMINTLARI. *Science and innovation*, 1 (D8), 145-151. doi: 10.5281/zenodo.7335759
4. Najmiddinov, Eldor , Rasuljonov, Adhamjon, & Rahimov, Javohir (2022). FISH HELMINTHS IN FISH RESERVOIRS OF FERGANA VALLEY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1049-1054.
5. E. Najmiddinov (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА “ИХТИОЛОГИЯ ВА ГИДРОБИОЛОГИЯ” СОҶАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1 (D8), 152-160. doi: 10.5281/zenodo.7335800
6. E. Najmiddinov (2022). ТАБИАТНИНГ МАКТАВГАСНА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI BARKAMOL AVLOD BO'LIB SHAKLLANISHIDAGI АНАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1 (B8), 149-154. doi: 10.5281/zenodo.7336353
7. Юлдашев, Э., & Нажмиддинов, Э. (2013). БРАКОНИДЫ (Hymenoptera, Braconidae) РОДА *ROGAS NEES* ФАУНЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. In *Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов* (pp. 134-136).
8. Нажмиддинов, Э. Х., Кучбоев, А. Э., Мухаммадиев, М. А., & Соатов, Б. Б. (2021). Эколого-морфологические характеристики нематод рода *Rhabdochona*-паразитов обыкновенной маринки. *Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями*, (22), 387-393.
9. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus *Rhabdochona* in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, 45(4), 1084-1089.
10. Xabibulloxonov, M. Z. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA INFORMATIKA FANINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISH. *Conferencea*, 199-202.

11. Dilshodbek O'g'li, R. S. (2022). The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete. *Innovative Developments And Research In Education, Canada*.

12. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 256-259.

13. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH–IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 66-70.

14. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117-121.

15. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2022). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS. *IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 215-221.

16. Qurbonova, S. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY INTELLEKTNING RIVOJLANISHI. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 73-79.

17. Курбонова, С. (2022). ПСИХОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШГА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(17), 191-194.

18. Qurbonova, S. (2022, June). ON THE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN PSYCHOLINGUISTICS. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 512-513).

19. Miralimjanovna, Q. S. (2022). O 'SMIRLIK DAVRIDA TURLI XIL QATLAMGA EGA BOLGANLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 39-44.

20. Miralimjanovna, Q. S. (2022). CHET EL OLIMLARI TOMONIDAN GURUHDAGI O 'SMIRLAR VA AUTSAYDERLAR MUAMMOSINI O 'RGANILISHNING OZIGA XOSLIGI. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 33-38.

21. Noxida, D., & Saida, Q. (2022). TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 309-314.

22. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 481-484.

23. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. *Conferencea*, 31-32.
24. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.
25. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.
26. Mukhtoriy, M. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI HIKOYALAR YORDAMIDA O'STIRISHNING MNEMOTEXNIKASI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 183-188.
27. Sodirzoda, M. M. (2021). WAYS TO USE APHORISMS IN THE CULTIVATION OF SPEECH OF JUNIOR SCHOOL PUPILS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 985-986.
28. Uljaevna, U. F., & Shavkatovna, S. R. (2021). Development and education of preschool children. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 326-329.
29. Shavkatovna, S. R. N. (2021). METHODOICAL SUPPORT OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 74-76.
30. Shavkatovna, S. R. (2021). DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 97-102.
31. Oljayevna, O., & Shavkatovna, S. (2020). The Development of Logical Thinking of Primary School Students in Mathematics. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), 235-239.
32. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
33. Shavkatovna, S. R. (2021). Improvement of methodological pedagogical skills of developing creative activity of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 289-292.
34. Ra'noxon, S. (2022). BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARIDA MATEMATIKAGA MUNOSABAT. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 203-207.

35. Шарофутдинова, Р., & Абдуллаева, С. (2022). ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕНТАЛ АРИФМЕТИКА. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 235-239.
36. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000006).
37. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 366-372.
38. Erkinovna N. S. Educational Methods in Teaching the Russian Language //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 260-263.
39. Erkinovna, Nurmatova Sadbarkhon. "Educational Methods in Teaching the Russian Language." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 260-263.
40. Erkinovna, N. S. (2022). Educational Methods in Teaching the Russian Language. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 260-263.
41. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
42. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
43. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
44. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dilfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
45. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).
46. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
47. Kalandarovna, Y. L. (2022). Identification And Education Of Gifted Children. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 42-47.

48. Yulchiboyeva, L. Q. (2022). IRIM-SIRIM BILAN BOG ‘LIQ TIL BIRLIKLARINING TAHLILIIY O ‘RGANILISHI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 170-175.
49. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar Talqinida Lingvistik Imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
50. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). LINGVOKULTUROLOGIYADA “SOG’INCH” KONSEPTINING QO’LLANILISHI VA O’ZIGA XOSLIKLARI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(8), 711-717.
51. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). MATNLARDA OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(9), 366-369.
52. To‘lqinovna, Y. D. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 25-31.
53. Yuldasheva Dilshoda To‘Lqinovna (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TASVIRLAR ORQALI IZCHIL NUTQNI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 1 (1), 741-750. doi: 10.5281/zenodo.653521
54. Yuldasheva, D. (2021). AGE AND THE SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 124-130.
55. Tulkinovna, Y. D. (2021). On the Principle of Simple to Complex in the Development of Speech in Young Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 32-35.
56. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A Study Of Memory Processes And Their Development In Preschool. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 62-65.
57. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
58. Usmonov, R. (2022). O’SMIRLAR XULQIDA NAMOYISHKORLIK G’AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 127-135.
59. Usmonov, R. (2022). O’SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 120-126.
60. Iqboljon, S. (2022). BOSHLANG’ICH SINIF O’QUV JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *IJODKOR O’QITUVCHI*, 2(20), 137-140.

61. Расулов, М. Ф., & оглы Кодиров, Ш. М. (2021). ФАРФОНА ВИЛОЯТИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲА (Пир Сиддик ва “Киргил ота мазор” зиёратгоҳлари мисолида). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(8).

62. Rahimjon o'g'li, A. A. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(2), 116-119.

63. Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O'YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 207–209

64. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. *Science and innovation*, 1(B8), 87-91.

65. Abdusalom Soliyev, & Ma'Rifatxon Jabborova (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI ONGIDA MILLIY MUSIQIY OHANGLARGA MOYILLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MILLY CHOLG'ULARNING O'RNI. *Science and innovation*, 1 (1), 637-646. doi: 10.5281/zenodo.652915

66. Kakharovna, A. M., Tadjimatovich, Y. M., Rakhmatovich, S. O., & Mirzahamdammovna, Q. B. (2021). Modern Approaches to the Teaching of Fine Arts. *Solid State Technology*, 64(2), 4250-4254.

67. Nazokat, A., Ibrokhim, Y., & Makhpuzakhon, A. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF FINE ARTS.

68. M. Ahmedbekova (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ИЖОДҚОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1 (B8), 112-119. doi: 10.5281/zenodo.7336303